ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

“МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА “УСТОЗ – ШОГИРД” ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ” МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ

# МАТЕРИАЛЛАРИ

**(2022 йил 14-15 апрел)**

НАМАНГАН-2022

Ушбу тўплам “Мактабгача таълимда инновацион ёндашувлар асосида “Устоз – шогирд” тизимини такомиллаштириш” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланди.

Тўпламда бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашда “Устоз-шогирд” тизимидан фойдаланиш, мактабгача таълимда малакали педагог ва бошқарув кадрларини тайёрлашда олий ва профессионал таълим интеграцияси, мактабгача таълим ташкилотларида “Устоз-шогирд” анъаналарига замонавий ёндашувлар, мактабгача таълим тизимини ривожлантиришда замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш масалалари ёритилган.

**Масъул муҳаррирлар:** доцент Ш.К.Хужамбердиева
катта ўқитувчи З.Т.Қорабоева

**Таҳрир ҳайъати:** профессор Ў.М.Асқарова
доцент М.А.Абдуллаева
доцент Х.А.Раҳматова
PhD Н.Ж.Абдусаматова
PhD З.С.Қодирова
PhD М.Асранбоева

**Конференция материалларини нашрга тайёрловчилар:**

доцент М.С.Нишонов
катта ўқитувчи Д.Қ.Асқарова
ўқитувчи Д.А.Хомидова
ўқитувчи Д.З.Худойқулова
ўқитувчи Н.И.Исмоилова
ўқитувчи: Л.В.Сарогли
ўқитувчи З.Х.Маҳмудова

Тўплам Наманган давлат университети Ўқув-услубий Кенгашининг 2022 йил .... апрелдаги ... –сонли баённомаси билан нашрга тавсия этилган.

o`quv yurtidagi rivojlanish jarayonini bilish, yosh kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklarni ko`rish, ularning amaliyotini to`g`ri yo`lga yo`naltirishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**


1. O`zbekiston Respublikasining ‘’Ta`lim to`g`risida’’ gi Qonuni. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., ‘’Sharq’’,1997 yil.
2. Kadrlash tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,’’Sharq’’,1997 yil
3. http;//www.bilimdon.uz
4. http;//www.ziyonet.uz
5. Qurbonov Sh.,va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ‘’Kadrlar tayyorlash milliy dasturi’’ni amalga oshirish borasidagi publistik mulohazalar Sharq, 1998.


## MAKTABGACHA TA’LIM MASHG’ULOTLARI JARAYONIGA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH


***Mirazimova Muxabbat Normatovna***

***O’qituvchi, Jizzax davlat pedagogika instituti***

***E-mail:***



***Annotasiya****: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg’ulotlar jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, foydalanish va shu asosda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari keltirib o’tilgan.*

***Annotation:*** *The article discusses the opportunities for the introduction and use of information and communication technologies in the educational process in preschool education, and on this basis to increase the effectiveness of education.*

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются возможности внедрения и использования информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе в дошкольном образовании и на этой основе повышения эффективности образования.*



***Таянч тушунчалар:*** *Kompyuter, maktabgacha ta’lim, mashg’ulot, ta’lim va tarbiya, axborot texnologiyalari, Davlat standarti, axborotlar ko‘lami, axborot-kommunikatsiya, pedagog.*

***Basic concepts:*** *Computer, preschool education, training, education and upbringing, information technology, State standard, information scale, information and communication, pedagogue.*

***Основные понятия****: Компьютер, дошкольное образование, обучение, обучение и воспитание, информационные технологии, Госстандарт, информационная шкала, информация и связь, педагог.*


Mustaqil mamlakatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdek sharafli va ma'suliyatli ishda ta'lim-tarbiya tizimining boshlang‘ich bo’g’ni bo‘lgan maktabgacha ta'lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo’lgan yoshda aqliy faollik oshadi, ahloqiy estetik va jismoniy hislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat’iy nazar, bog’cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo’nalishi bilan to’liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta’lim bo’yicha samarali islohotlar olib borilmoqda. Izchil islohotlarning natijasi sifatida yurtimizda ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11 iyun 2019 yildagi 487-son “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari mazkur sohani yanada takomillashtirishga hamda maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas bo’lagiga aylanganligi, ta‘lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim dasturlari hamda texnologiyalarini joriy etish orqali sifat darajasini oshirishga, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilayotganligi buning yorqin dalilidir

O‘zbekiston Respublikasining 23 sentabr 2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 8-moddasida: “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o’qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-ahloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o’rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir”[18], - deyilgan.

Bugun biz axborot texnologiyalari rivojlangan, axborotlar ko‘lami benihoyat ko‘payib ketgan asrda yashayapmiz. Ushbu asrda pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, o‘quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish, ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan davlatlar o‘quv tizimidagi yangiliklar hamda yutuqlarni o‘rganish, bilimlarni ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda etkazib berishi hozirgi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha talim yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ta‘lim – tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash, ta‘lim–tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish M**aktabgacha ta’lim** va tarbiyaning Davlat standartining eng muhim vazifalaridandir. Bu kabi vazifalardan kelib chiqqan holda ta‘lim – tarbiya jarayoniga eng zamonaviy, bola yoshiga mos vositalarni tanlash pedagog xodimlardan bilim va tajriba talab qiladi. Bolaning ta‘lim olishi va rivojlanishida esa pedagoglarning ro‘li muhim ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachi - o‘rgatuvchi, bolalar esa qabul qiluvchi hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta‘lim tashkiloti tajribali pedagoglaridan mashg‘ulotlar jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalana olishi, bilimga ega bo’lishni talab qiladi. Hozirgi kunda ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan



[18] O‘zbekiston Respublikasining 23 sentabr 2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 8-modda

bog`liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Pedagogik texnologiya ta‘lim-tarbiya jarayoniga o‘ziga xos bo‘lgan innovatsion yondashuvdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlar jarayonida pedagogik va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, foydalanishning metodik ta’minotini yaratish, kompyuterli ta’limiy va rivojlantiruvchi o’yinlarning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va shu asosda tarbiyalanuvchilarning boshlang’ich kompyuter savodxonligini shakllantirish maqolaning ilmiy mohiyatini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim mashg’ulotlari jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bolalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga qiziqtirish, har tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy, jismoniy rivojlangan, kompyuter savodxonligiga ega, raqobatbardosh, bilimli, salohiyatli, kelajagimiz davomchilarini tarbiyalshdir.

***ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:***


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son.
2. O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2019 yil 11 iyundagi 487-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son
5. Mirazimova Muxabbat (2021). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA FAOLLIK MARKAZLARININING MAZMUNI. https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/authorDashboard/submission/3523
6. Mirazimova Muxabbat. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATLAR JARAYONIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI. https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/authorDashboard/submission/4727


## РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА


***Якубова Диана Хайдаровна***

***Магистрант, Ургенчский государственный университет***

***E-mail: ya.dinka1986@gmail.com***



***Аннотация:*** *Статья посвящена актуальному вопросу современного образования — развитию и поддержки творческой, креативной личности. А также дошкольному возрасту, который является благоприятным периодом для развития в ребенке креативного мышления.*

***Аннотация:*** *Maqola zamonaviy ta'limning dolzarb masalasiga — ijodiy shaxsni rivojlantirishga bag'ishlangan. Shuningdek, maktabgacha yosh, chunki bu bolada ijodiy fikrlashni rivojlanish uchun qulay davr hisoblanadi.*

| | | |
|---|---|---|
| 143. | **Mirazimova M.N.** Maktabgacha ta'lim mashg'ulotlari jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish | 431 |
| 144. | **Якубова Д.Х.** Развитие креативности у детей дошкольного возраста | 433 |
| 145. | **Азадова М.М.**Формирование трудового воспитания у дошкольников | 437 |
| 146. | **Якубова Г.** Формирование наглядно-образного мышления у старших дошкольников посредством экспериментирования в процессе познания окружающего мира. | 440 |
| 147. | **Каримова Ф.** Экологическое воспитание в дошкольных образовательных учреждениях как компонент образования. | 442 |
| 148. | **Мадаминова Г.** Система образования в Южной Корее | 445 |
| 149. | **Otayeva S.**Bo'lajak o'qituvchilarni bolalarning ruhiy holatlarini tahlil qilishga o'rgatish. | 447 |
| 150. | **Mukarramxon N.** Oiladagi tarbiyada bola shaxsining Xulq-atvor xususiyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi | 450 |
| 151. | **Ergasheva M.** Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-metodik faoliyatini tashkil etishda ustoz-shogird masalalari. | 452 |
| 152. | **Абдукаримова Ш. Эргашалиева М.** Инклюзивное образование в дошкольной организации | 455 |